

SURUNKALI NEFRITIK SINDROMNING ETIOLOGIK ASPEKTLARI

Bazarova Nigina Sobirjonovna

Farmatsevtika biznesini tashkil etish kafedrasi mudiri, PhD.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti.

ORCID ID 0000-0001-8070-9391

Annotatsiya: *Surunkali nefritik sindrom - bu bolalardagi eng og'ir buyrak kasalliklaridan biri bo'lib, asoratlarning tez-tez rivojlanishi va kasallikning avj olishi bilan ta'riflanadi. So'nggi 10 yil ichida surunkali nefritik sindrom bilan kasallanish barqaror rivojlanib bormoqda va bu buyrak kasalliklarining 36,8 foizini tashkil qiladi. JSST ma'lumotlariga ko'ra, ushbu sindrom siydik tizimining kasalliklari hozirgi vaqtda buyrak patologiyasining bolalik davriga xos asosiy shakllari orasida 2-o'rinni egallaydi.*

Базарова Нигина Собиржоновна

Заведующая кафедрой организации фармацевтического дела, PhD.

Самаркандский Государственный медицинский университет.

ORCID ID 0000-0001-8070-9391

ЭТИОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ХРОНИЧЕСКОГО НЕФРИТИЧЕСКОГО СИНДРОМА

Аннотация: *Хронический нефритический синдром — одно из наиболее тяжелых заболеваний почек у детей, характеризующееся частым развитием осложнений и обострением заболевания. За последние 10 лет неуклонно развивается заболеваемость хроническим нефритическим синдромом, на долю которого приходится 36,8% заболеваний почек. По данным ВОЗ, этот синдром в настоящее время является второй по частоте формой патологии почек в детском возрасте.*

Bazarova Nigina Sobirzhonovna

Head of the Department of Organization of Pharmaceutical Business, PhD.

Samarkand State Medical University. ORCID ID 0000-0001-8070-9391

Etiological aspects of chronic nephritic syndrome.

Annotation: *Chronic nephritic syndrome is one of the most severe kidney diseases in children, characterized by the frequent development of complications and exacerbation of the disease. Over the past 10 years, the incidence of chronic nephritic syndrome has been steadily developing, which accounts for 36.8% of kidney diseases. According to WHO, this syndrome is currently the second most common form of kidney pathology in childhood.*

Mavzuning dolzarbligi. Surunkali nefritik sindrom muammosining dolzarbligi shundaki, bolalik davrida kasallik bilan og'rish, keyinchalik nogironlikka olib keladi va buyrak etishmovchiligining rivojlanishi bilan izohlanadi. Surunkali buyrak yetishmovchiligi bilan xastalangan bemorlarni davolashda faqat ikki usul — muntazam gemodializ orqali va buyrak transplantatsiyasi samara beradi, xolos. Ma'lumki bu ikki usul o'zining qimmatligi va axolining turli qatlamlari uchun iqtisodiy qiyinchilik tugdiradi.

Ushbu kasallik avto immun kasallik bulib, glomerulalar, tubulalar va interstitsial to'qimalarni zararlanishi, bu esa organlarning, tizimli zararlanishiga olib keladi. Bolalarda uchraydigan surunkali nefritik sindrom kasalligi va surunkali buyrak etishmovchiligining tibbiy va ijtimoiy jihatdan muxim ahamiyatga ega bo'lib, kasallik patogenezdagi noaniqlik, organizm immun tizimining bevosita aloqadorligi, yomon prognoz, diagnostika va davolashda qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Sog'liqni saqlash tizimining yuksalishi, fan-texnikaning rivojlanishi tufayli bu kasallikning xavflilik darajasi pasaygan bo'lsa ham, u inson salomatligi uchun jiddiy xastalik hisoblanadi. Shuning uchun kasallikka aniq tashxis qo'yish tashxislash usullarini takominlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Nefrologiya sohasini rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-fevraldagi PF-5590-son "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-noyabrdagi PQ-4513-son "Reproduktiv yoshdagi ayollar, homilador ayollar va bolalar ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini yaxshilash va kengaytirish to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-iyundagi PF-3071-son "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan tasdiqlangan vazifalarni hamda ushbu sohada qabul qilingan boshqa me'yoriy hujjatlardagi vazifalarni bajarishni talab qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Surunkali nefritik sindrom ko'pgina manbalarda surunkali glomerulonefrit, -deb ham nomlanadi. (N.P. Shabalov-2019. Darslik 7-nashriyot.Sankt-Piterburg). Mualliflar surunkali nefritik sindrom va surunkali glomerulonefritni MKB-bo'yicha bitta shifr (№ 03) bo'yicha qarashadi. Chunki surunkali glomerulonefritni morfologik shakli turli xil bo'lib, faqatgina biopsiya orqali aniq tashxislash mumkin. Shuning uchun keying 5-yil ichida "surunkali nefritik sindrom" -termini ishlatilmoqda.

Hozirgi vaqtda surunkali nefritik sindromning rivojlanishida uchta asosiy mexanizmga ahamiyat beriladi: immun, gemodinamik va metabolik. Biroq, glomerulonefrit rivojlanishida bu omillarning birinchisi eng katta ahamiyatga ega. Faqat 90-yillarda glomerulus va periferik qonda immun komplekslarini aniqlash haqida xabarlar tasdiqlanib, ushbu kontseptsiya ishlab chiqilib, keyinchalik

immunokompleks glomerulonefrit nazariyasi ishlab chiqildi. (Raxmanova L.K.,Daminov B.T.,KarimovaU.N. 2017)

Adabiyotlarga ko'ra, glomerulyar patologiyaning rivojlanish mexanizmi, birinchi navbatda, immunitetning T-hujayrasining genetik zaifligi natijasi sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Bu oxir-oqibatda tananing alohida qismlarini tiklash jarayonlarining buzilishiga olib keladi, ya'ni nefronning antigenik tuzilishining keyingi o'zgarishi va immun komplekslarning shakllanishida namoyon bo'ladi. Bu glomerulonefritning patogenezi masalasi ochiqlicha qolishiga olib keldi. (Tirikova O.V., Filatova I.A. 2017)

Ikkinchisi bazal membrananing ta'sirlangan joylarida lokalizatsiya qilinadi, so'ngra podotsitlar, neytrofillar, mezangial hujayralar va makrofaglar tomonidan fagotsitozlanadi. Ushbu hujayralarning ba'zilar nobud bo'lganda, lizosomal fermentlar ajralib, bazal membranani yanada shikastlaydi. T-limfotsitlarning kam miqdori bunga moyil bo'lib, bu jarayonni qaytarib bo'lmaydigan zanjir holatini namoyon qiladi. Organizmga ekzogen antigen tushganda, ko'proq miqdorda antitellos hosil qiluvchi hujayralar antigen bilan bog'lanish va immun kompleksini hosil qilish uchun antitelalar ishlab chiqara boshlaydi. Ushbu komplekslarning ba'zilar to'g'ridan-to'g'ri periferik oqimda granulotsitar seriyali hujayralar tomonidan qayta foydalaniladi, qolganlari glomerulyar to'qimalarga kiradi va u yerda to'planadi. Bundan tashqari, komplement tizimining faollashuvi mavjud bo'lib, bu o'z navbatida neytrofillarni glomerulaga jalb qiladi. Neytrofillar, bazal membrana sohasidagi immun komplekslarning fagotsitozi paytida, lizosomal fermentlarni chiqaradi va shu bilan membrananing bu joylariga zarar etkazadi. Neytrofillardan tashqari, glomerulyar zonaga ko'p miqdordagi monositlar kiradi. Monositlar to'qimada mezangial hujayralarning ko'payishini qo'zg'atadi, buning natijasida glomerulyar hujayralarning patologik proliferatsiyasi holati rivojlanadi.

Surunkali nefritik sindrom shakllanishida giperergik reaksiya, ayniqsa autoimmun buzilishlari bilan namoyon bo'ladigan makroorganizm reaktivligining o'zgarishlari muhim rol o'ynaydi. Mazkur kasallikning autoimmun genezligini tasdiqlovchi dalillar: bemor qonida buyrakka qarshi autoantitana topilishi, glyukosteroidli gormonlar va immundepressantlar qo'llanilishining samaradorligi, hamda koptokcha bazal

membranalari shikastlanishini va yallig'lanish reaksiyasini chaqiradigan A va M immunglobulinlaridan tashkil topgan koptokcha kapillyarlarining bazal membranalarida depozit ko'rinishidagi immun komplekslarini ajralib chiqishining mavjudligi bo'lib hisoblanadi. (Morozov S.L., Dlin V.V., Suxorukov V.S., Voronkova A.S. 2017)

Noimmun omillardan giperkoagulyatsiya, tomir ichida qon ivishi, koptokcha kapillyarlariga fibrin va uning parchalanish mahsulotlarining tushishi, hamda qonda kinin, gistamin, serotonin, renin va prostoglandinlar miqdorlarining ko'payishi bo'lib,

gemostaz va fibrinoliz tizimidagi buzilishlar kasallik patogenezining noaniqligini va bu kasallik poliyetiologik va polipatogenetik ekanligini bildiradi.

Hozirgi vaqtda butun dunyo olimlarini nima uchun ko'ptokcha proliferatsiyadan keyin xujayralarda o'zgarimas sklerotik o'zgarishlarga uchrashi va bu organizmning erta sun'iy ovqatlantirishga o'tishi, ekologik omillar, turli allergenlar hujayra darajasida o'z kuchini ko'rsatadi va eng nozik organ tizimini zararlab, hujayraning genetik zaifligiga olib keladi. Genetik moyillik esa hujayralarning o'zgarimas jarayonlariga sabab bo'ladiki, bu o'zgarishlar irsiyatga ta'sir qiladimi yo'qmi, ushbu savollarga hozirgacha javob topilganicha yo'q. Shuning uchun glomerulonefritning patogenezini xaligacha aniq o'z ifodasini topmagan. Shunday qilib, 21-asr tibbiyoti profilaktika ekanligini xisobga olgan holda, kasallikni diagnostika va prognozlash taktikani takomillashtirish bo'yicha keyingi tadqiqotlar zarurligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR:

1. Raxmanova L.K., Daminov B.T., Karimova U.N. Uslubiy yordam vositalari. Bolalarda surunkali glomerulonefrit. 2017 yil.
2. Sobirjonovna B. N., Khudoyberdievich Z. S. Comprehensive assessment of various forms of chronic nephritic syndrome in children. – 2022.
3. Собиржонова Б.Н., Куракбаева Т.С. Клиническая динамика хронического нефритического синдрома у детей //Евразийский журнал медицинских исследований. – 2023. – Т. 19. – С. 53-56.
4. Собиржонова Б.Н. Новые аспекты генетической предрасположенности различных форм хронического нефритического синдрома у детей //Журнал универсальных научных исследований. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 778-782.
5. Бозорова Н., Анорбаева Ш., Назарова Л. значение подорожника в народной медицине //Инновационные исследования в современном мире: теория и практика. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 5-6.
6. Sobirjonovna B. N. et al. CHAKANDA O'SIMLIGIGA ZAMONAVIY QARASHLAR //journal of innovations in scientific and educational research. – 2023. – Т. 6. – №. 2. – С. 209-211.
7. Туъчиёва Сабоҳат Қурақбайёвна. (2023). Топинамбурнинг доривор хусусиятлари. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(13), 281–284.
8. Куракбаева, Т. С. (2023). Особенности диабетической нефропатии в хронических осложнениях сахарного диабета. Scientific Impulse, 1(7), 87–91.
9. Нарзуллаева М. А. АЛТЕЙ И ЕГО ПОЛЕЗНЫЕ СВОЙСТВА В МЕДИЦИНЕ //Journal of Universal Science Research. – 2023. – Т. 1. – №. 8. – С. 91-94.

10. Nabieva F. S., Narzullayeva M. A., Bo'Riyev M. G. YUQUMLI KASALLIKLARNI TASHXISLASHDA IMMUNOFERMENT TAHLILINING AHAMIYATI //Research Focus. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 161-164.
11. Mavsuma O. MEDICINAL PROPERTIES OF SEA BUCKTHORN (Hippophae Rhamnoides L.) OIL PLANT //Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 1-3.
12. Sadriddinova A. S., Gulyamova A. M. The relevance of the meaning of plantain in folk medicine //Eurasian Medical Research Periodical. – 2023. – Т. 19. – С. 49-50.
13. Gulyamova A. M., Sadriddinova A. S. Hypotensive properties of the plant salvia submutica //Eurasian Medical Research Periodical. – 2023. – Т. 19. – С. 51-52.
14. Telmanova X. S., Batirbekovich X. R. Psychopharmacotherapy of Depressive Disorders in Alcoholism //Eurasian Research Bulletin. – 2023. – Т. 16. – С. 179-182.
15. Abdukadirova N. B., Telmanova X. S. Assessment of the Level of Immunoglobulins in the Blood Serum in Young Children Depending on the Type of Feeding //Eurasian Research Bulletin. – 2023. – Т. 17. – С. 164-166.
16. Ахмедов Б., Буриев З. ДОРИВОР АНОР (PUNICA GRANATUM L.) ЭКСПЛАНТЛАРИНИ ТАНЛАШ ВА СТЕРИЛИЗАЦИЯ ҚИЛИШ //Евразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 1 Part 2. – С. 131-134.
17. Akhmedov B., Buriev Z. SELECTION AND STERILIZATION OF MEDICINAL POMEGRANATE (PUNICA GRANATUM L.) EXPLANTS //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 106-108.